



2020- yilning yanvar-iyul oylari uchun Surxondaryo viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-iyul oylarida Surxondaryo viloyatida jami **2 642,5** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **103,8 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan
korxonalar va tashkilotlar soni,
2020- yil 1- avgust holatiga ko'ra, birlikda**

2020- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2439 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 396 taga oshdi.



Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining o'tgan yilga nisbatan **108,1 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **66,5 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **143,2 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **13,0 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **155,3 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **20,5 %**) o'sishidir.




Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
	01.08.2019- yil	01.08.2020- yil	
Surxondaryo viloyatii	2 043	2 439	119,4
Termiz sh.	665	713	107,2
tumanlar:			
Oltinsoy	40	52	130,0
Angor	111	140	126,1
Bandixon	-	35	-
Boysun	115	149	129,6
Denov	115	142	123,5
Jarqo'rg'on	160	197	123,1
Qiziriq	123	142	115,4
Qumqo'rg'on	124	151	121,8
Muzrabot	95	113	118,9
Sariosiyo	115	135	117,4

Termiz	191	219	114,7
Uzun	47	51	108,5
Sherobod	62	83	133,9
Sho'rchi	80	117	146,3


**Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan
qurilish korxonalari soni,
01.08.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)**



Ma'lumot uchun: viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Termiz sh. (29,2 %), Termiz tumani (9,0 %) va Jarqo'rg'on (8,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Jori yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **386,1** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **95,6 %** ga koʻp bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan **3,1 %** punktga kamayib, **14,6 %** ni tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-iyul oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




Ma'lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Sariosiyo tuman (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **55,1 %** i yoki 2019- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan **85,7 %**), Qumqoʻrgʻon (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **21,8 %** i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **65,3 %**), va Termiz shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **4,5 %** i, yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **172,6 %**) ga toʻgʻri keldi.




Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **62,6 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-iyul oylari ko'rsatkichiga nisbatan **0,3 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **103,2 %** ni tashkil etgan holda **1 653,9** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **22,8 %** ni tashkil etdi yoki **602,5** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **111,4 %** ni tashkil etdi

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **22,9** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **2 619,6** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **0,9 %** va **99,1 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2020- yilning yanvar-iyul oylarida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Surxondaryo viloyati	2 642,5	22,9	100,0	2 619,6	100,0
Termiz sh.	712,2	13,6	59,4	698,6	26,7
tumanlar:					
Oltinsoy	45,0	-	-	45,0	1,7
Angor	99,2	-	-	99,2	3,8
Bandixon	22,2	-	-	22,2	0,8
Boysun	189,7	-	-	189,7	7,2
Denov	206,3	-	-	206,3	7,9
Jarqo'rg'on	139,7	-	-	139,7	5,3
Qiziriq	63,6	4,3	18,8	59,3	2,3
Qumqo'rg'on	96,7	-	-	96,7	3,7
Muzrabot	106,1	-	-	106,1	4,0
Sariosiyo	494,1	-	-	494,1	18,9
Termiz	143,8	-	-	143,8	5,5
Uzun	70,7	-	-	70,7	2,7
Sherobod	185,1	5,0	21,8	180,1	6,9
Sho'rchi	68,1	-	-	68,1	2,6

**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2020- yil yanvar-iyul**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 75,8 % i yoki **2 004,2** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

75,8 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **355,2** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 91,9 % ni tashkil etdi

91,9 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1 099,5** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 66,5 % ni tashkil etdi.

66,5 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **549,4** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 91,2 % ni tashkil etdi.

91,2 %




**2020- yilning yanvar-iyul oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan, % da
Surxondaryo viloyati	2 642,5	103,8	100,0
Termiz sh.	712,2	110,7	27,0
tumanlar:			
Oltinsoy	45,0	101,9	1,7
Angor	99,2	100,8	3,7
Bandixon	22,2	103,0	0,8
Boysun	189,7	105,9	7,2
Denov	206,3	103,7	7,8
Jarqo'rg'on	139,7	97,2	5,3
Qiziriq	63,6	71,1	2,4
Qumqo'rg'on	96,7	96,5	3,7
Muzrabot	106,1	104,5	4,0
Sariosiyo	494,1	101,5	18,7
Termiz	143,8	103,4	5,4
Uzun	70,7	104,8	2,7
Sherobod	185,1	107,6	7,0
Sho'rchi	68,1	112,1	2,6

**Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari**

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **0,7 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,6 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,6 %** punktga kamayib, **65,4 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **3,0 %** punktga ko'payib, **33,9 %** ni tashkil etdi.


ulushi, % da



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **50,9 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **5,3 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **49,1 %** (**5,3 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **8,7 %** punktga kamaydi va **12,9 %** ni tashkil etdi. Qolgan **87,1 %** i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan **8,7 %** punktga ko'paydi.

ulushi, % da



2020- yilning yanvar-iyul oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd. so'm

Termiz sh.
712,2



Sariosiyo
494,1



Denov
206,3



Sherobod
185,1



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Termiz sh. (712,2 mlrd. so'm), Sariosiyo (494,1 mlrd. so'm), Denov (206,3 mlrd. so'm), Sherobod (185,1 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.



**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Tel.: 76 225-65-59